ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 4/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 4/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 4/1

ТОШКЕНТ-2026

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4/1 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-4/1

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решает задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Заитов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпўлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрахон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Farfiev Baxrom
FUQAROLIK JAMIYATI, MAHALLA VA OILA INSTITUTLARINING DERADIKALIZATSIYA JARAYONINI AMALGA OSHIRISHDAGI O‘RNI……...5

2. Karimov Bobir
YANGI ÖZBEKISTON ŞAROITIDA YOŞLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRIŞNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI……16

3. Yunusov Kamaldin
YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI…….24

4. Сабирова Умида, Нигматуллина Алина, Румянцева Екатерина
НЕЭТИЧНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ КАК СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА…….31

5. Якубов Ильдар
СОЦИАЛЬНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: КАК СОТРУДНИЧЕСТВО ВЛИЯЕТ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….40

6. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA INKLYUZIV TARAQQIYOTNING SOTSIOLOGIK DISKURSI…..48

7. Musurmanov Nodirbek
INSON KAPITALI VA IJTIMOIY RIVOJLANIŞ UYĞUNLIGI……56

8. Alimuxamedova Nodira
GLOBAL RAQAMLAŞUV DAVRIDA IJTIMOIY ONG RIVOJLANIŞINING XUSUSIYATLARI……65

9. Nematova Dilfuzaxon
JAMIYAT VA INSONLAR HAYOTIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI……..71

10. Qosimov Vohid
DAVLAT XIZMATIDA HALOLLIK VA ADOLATNI TA’MINLAŞGA DOIR ŞARQ VA ĞARB MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARINING NAZARIY TAHLILI…….78

11. Husenov Sirojiddin
IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAKATI BILAN UYĞUNLIGI……..88

12. Ixtiyarov Farxod
RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOIY BARQARORLIK VA KAFOLATLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLAŞ IMKONIYATLARI…….93

ISSN: 2181-9556
www.tadqiqot.uz
ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Yunusov Kamaldin,
Andijon davlat universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori
siyosiy fanlar doktori
e-mail: kamoyunus@mail.ru,
kamaliddin57@gmail.com

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24133652

ANNOTATSIYA

Мақолада ҳозирги даврда Ўзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларда олиб борилаётган ижтимоий тадқиқотлар социологграфиясининг ўзига хос жиҳатлари баён этилган. Шунингдек, социологграфиянинг моҳияти, ҳозирги даврда Ўзбекистонда, ижтимоий-гуманитар фанлар доирасида олиб борилаётган илмий тадқиқотлардаги ўзига хос муаммолар таҳлили ва уларни бартараф этиш йўллари таҳлил қилинган. Мақолада: ижтимоий тадқиқотлардан олинган илмий асарлардаги натижалар, илмий хулоса ва таклифларнинг жорий этилиши, келажакда социологграфик тадқиқотларнинг методологик ҳамда амалий жиҳатдан самарадорлиги асослаб берилган.

Kalit so‘zlar: sotsiologgrafiya, ilmiy tadqiqotlar,ilmiy-amaliy qimmat, ilmiy-nazariy tahlil, ilmiy tamoyillar, ijtimoiy jarayon, obyektiv qonuniyat, paradigmalar, subyektiv omil.

Юнусов Камалдин,
профессор кафедры «Социальные науки»
Андижанского государственного университета,
доктор политических наук

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОЦИОЛОГИИ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИВАЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье описываются специфические аспекты социологических социальных исследований, проводимых в Узбекистане в рамках социальных и гуманитарных наук в настоящее время. Также анализируется сущность социологии, рассматриваются конкретные проблемы научных исследований, проводимых в Узбекистане в рамках социальных и гуманитарных наук в настоящее время, и анализируются пути их преодоления. Статья: обосновывает результаты научных работ, полученные в ходе социальных исследований, представляет научные выводы и предложения, а также рассматривает методологическую и практическую эффективность социологических исследований в будущем.

Ключевые слова: социологические исследования, научные исследования, научно-практическая ценность, научно-теоретический анализ, научные принципы, социальный процесс, объективная закономерность, парадигмы, субъективный фактор.

Kamaldin Yunusov,
Professor at the Department of Social Sciences
Andijan State University,
Doctor of Political Sciences.

SPECIFIC ASPECTS OF THE SOCIOLOGY OF SOCIAL RESEARCH IN DEVELOPING UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article describes specific aspects of sociological research currently being conducted in Uzbekistan within the fields of social sciences and the humanities. It also analyzes the essence of sociology, examines specific challenges facing such research in the country, and explores ways to overcome them. The article substantiates the findings of these studies, presents scientific conclusions and proposals, and considers the future methodological and practical effectiveness of sociological research.

Keywords: sociological research, scientific research, scientific and practical value, scientific-theoretical analysis, scientific principles, social process, objective regularity, paradigms, subjective factor.

Yunusov Kamaldin,
Andijon davlat universiteti, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori
siyosiy fanlar doktori
e-mail: kamoyunus@mail.ru,
kamaliddin57@gmail.com

YANGILANAYOTGAN ÖZBEKISTONDA IJTIMOIY TADQIQOTLAR SOTSIOLOGGRAFIYASINING ÖZIGA XOS JIHATLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi davrda Özbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan ijtimoiy tadqiqotlar sotsiologgrafiyasining öziga xos jihatlari bayon etilgan. Şuningdek, sotsiologgrafiyaning mohiyati, hozirgi davrda Özbekistonda, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlardagi öziga xos muammolar tahlili va ularni bartaraf etiş yöllari tahlil qilingan. Maqolada: ijtimoiy tadqiqotlardan olingan ilmiy asarlardagi natijalar, ilmiy xulosa va takliflarning joriy etilişi, kelajakda sotsiologgrafik tadqiqotlarning metodologik hamda amaliy jihatdan samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit sözlar: sotsiologgrafiya, ilmiy tadqiqotlar,ilmiy-amaliy qimmat, ilmiy-nazariy tahlil, ilmiy tamoyillar, ijtimoiy jarayon, obyektiv qonuniyat, paradigmalar, subyektiv omil.

KIRIŞ

Sotsiologgrafiya mavzusiga oid mazkur maqolamizda, hozirgi davrda Özbekistonda, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida olib borilayotgan ijtimoiy tadqiqotlar sotsiologgrafiyasi xususida ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz.

“Jamiyatimizda uçrab turadigan ayrim hodisalarga öz fikrimizni bildiraylik. Tomoşabin emas, tahlil qiluvçi bölaylik!!!” – deb murojaat qiladi sotsiologiya fanlari doktori, professor Mavluda G‘affarova özining “Kelajakka işonç” nomli telegramm kanali orqali öz muxlislariga [1].

2023-yil 1-maydan kuçga kirgan «Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tög‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunga binoan ijtimoiy-siyosiy hayotimizda amal qilayotgan Özbekiston Respublikasi konstitutsiyasining «Xalq hokimiyatçiligi” deb nomlangan ikkinçi bobi ön ikkinçi moddasida: “Özbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi.

Heç qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida örnatilişi mumkin emas” [2] – degan tamoyil qayd qilingan. Ana şu tamoyilga asoslangan holda ta’kidlaş muhimki, Özbekistonda avvalda, Şöro

tuzumida amal qilganidek, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida biron bir mafkuraga asoslangan ta'limot, yoki ta'limotga asoslangan mafkura yagona hukmronligiga yöl qöyilmaydi. Şu tamoyildan kelib çiqib, sotsiologgrafik tamoyildan kelib çiqib aytiş mumkinki, bizningça, hozirda Özbekistonda öqitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlari, xususan, falsafa, sotsiologiya, politologiya, psixologiya, iqtisodiyot kabi fanlar ham yagona nazariy-metodologik tamoyilga böysundirilmasligi lozim. Boşqaça qilib aytganda hozirda, Özbekistonda oliy ta'lim muassasalarida öqitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlari ham, yuqorida körsatib ötilgan tamoyilga asoslangan holda öqitilişi yölga qöyilmog'i lozim.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada: ijtimoiy tadqiqotlar, ulardan olinadigan ilmiy natijalar, ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilişi, kelajakda sotsiologgrafik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy, metodologik hamda amaliy jihatdan samaradorligini, jamiyat taraqqiyotida özining muhim ahamiyatini namoyon qiladi. Sotsiologgrafiya metodologik tamoyili eng avvalo, empirik tadqiqotlar, kontent, analitik tahlillarga asoslanadi.

Ma'lumki, keyingi yillarda, Özbekistonda ilm-fanga har jihatdan e'tibor ortib borayotganiga guvox bölmoqdamiz. "Biz özgarişlarni kutib yaşamaymiz, aksinça, ularni özimiz, öz aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz" [3].

2025-yilda Toşkentda "Metodist" naşriyotida naşr qilingan "Özbekistonda sotsiologiya fani namoyandalari" nomli qisqaça biografik ma'lumotnomada professor Kalonov K.Q. özining "Uzoq yillik sotsiologik amaliyot va akademik bilimlar ortidan yozilgan biografiya" nomli biografik oçerkida Özbekistonda sotsiologiya fanining taraqqiyot bosqiçidagi davrlar va mamlakatimizda sotsiologik faoliyatning özgarib boriş dinamikasini xolis bayon qilgan [4]. Unda bildirilgan quyidagi fikr: "Şunday vaziyatlar böladiki, köpinça mahalliy tadqiqotçilarning ilmiy ma'ruzalarida nazariy-metodologik asoslangan tadqiqotlar yetişmasligini his etamiz. Ba'zida xalqaro konferensiyada bizning mahalliy tadqiqotçilarimizni prezident nutqlari bilan ifodalangan, yoki darsliklarga tayanib qilgan ilmiy ma'ruzalarini tinglar ekansiz, atrofda kulib ötirgan, ba'zida örinlaridan turib çiqib ketayotgan horijlik mutaxassislarning hatti-harakatlarini körgaç, saviyasiz tadqiqotçilarimiz munosabatlaridan judayam xafa bölib ketasiz. Konferensiya dasturida "falonçiyev falonçi, fan doktori, professor" degan jimjimador yozuvlarni aytmasa, mamlakatning, millatning şa'nini namoyon etadigan ulug'vor sotsiolog olimlarimiz deyarli körinmaydi" [5] – degan fikri hozirga davr ijtimoiy fan namoyandalariga taalluqlidir.

Har qanday ijtimoiy-gumanitar fanlarida, boşqa ilmiy fanlar kabi "fanning maqsadlari quyidagilardan iborat: - faktlarni töplaş, tavsiflaş, tahlil qiliş, umumlaştiriş va tuşuntiriş; - tabiat, jamiyat, tafakkur va idrokning harakat qonunlarini kaşf etiş; - olingan bilimlarni tizimlaştiriş; - hodisalar va jarayonlarning mohiyatini tuşuntiriş; - voqealar, hodisalar va jarayonlarni başorat qiliş; - olingan bilimlarni amaliy qöllaş yönalişlari va şakllarini belgilaş." [6. 199.]. Ana şu tamoyillar sotsiologgrafiyaning muhim ilmiy tamoyillarini taşkil etadi.

ASOSIY QISM

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlaşda asosiy qomusimiz – "Özbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi"da körsatib ötilgan moddalardan, şuningdek, quyidagi ijtimoiy fanlar, xususan falsafiy asarlarda keltirilgan fikr va mulohazalardan, mualliflarning qaraşlaridan foydalanildi: Ivanov G. M. i dr. "Metodologiçeskiye problemi istoriçeskogo poznaniya" (Moskva,1981), T. S. Saidqulovning "Örta Osiyo xalqlari tarixining tarixşunosligidan lavhalar" (1 qism.). (T.: "Öqituvçi." 1993), "Falsafa: qomusiy lug'at". (T; «Şarq", 2004. B.313), "Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot". Ilmiy işlar töplami. (T; "Özbekiston", 1997. B.198), "Qadriyatlar - ma'naviy kamolot asosi" (Toşkent: "Oila" I ATM, 2019, 36 b.), J.T. Tulenov. "Hayot falsafasi" (T.: "Özbekiston" naşriyoti, 1993 yil.B.319.), Sulaymonova F. "Şarq va G'arb"(Toşkent, "Özbekiston".1997), "Qadriyatlar falsafasi". (T; "Özbekiston", 1998. B.ZZZ), Repina L. P. «Novaya istoriçeskaya nauka i sotsialnaya istoriya» (Moskva., 1998), Brodel F. (Istoriya i obşestvenniye nauki. Istoriçeskaya deyatelnost // Filosofiya i metodologiya istorii. Blagoveşensk. 2000.), Gryaznov I. M. "Metodologiya nauçnogo tvorçestva" (M.: RUDN.2000), Parfyonov I. D. "Metodologiya istoriçeskoy nauki" (Saratov. 2001), Peregudov L. "Metodologiya nauçnix issledovavaniy" (Taşkent, 2002.), Smolenskiy N. I. "Teoriya i

metodologiya istorii" (Moskva, «Akademiya». 2007), falsafa fanlari doktori, profesor Q. Nazarovning "G'oyalar falsafasi" nomli tajribaviy qöllanmasi (T.: "Akademiya" naşriyoti. 2011. B.331.), Bibikov G.N., Bibikova L. I. "Metodologiya sovremennoy istorii: istoriografiçeskiy oçerk" (M. Fond sovremennoy istorii, Izdatelstvo Moskovskogo universiteta, 2011), falsafa fanlari doktori, profesor N.A.Şermuxamedovaning "Gnoseologiya – biliş nazariyasi" nomli darsligi (T.: "Özbekiston faylasuflari milliy jamiyati"naşriyot i. 2011 yil. B. 463.), N.E. Temirovaning Qadriyatlar va yoşlar kamoloti (T: Falsafa va huquq instituti. 2008. B.26), 2020 yilda Toşkenda naşr qilingan B. Tulayevning "Metodologiya nauçnix issledovaniy" nomli darsligi, professor Alişer Doniyorovning Markaziy Osiyo xalqlari tarixşunosligi (T. NIFMŞ.2020.442 bet) darsligi, falsafa fanlari doktori, profesor T. Ortiqovning "Ma'naviyatşunoslikka kiriş" nomli öquv qöllanmasi (T.: "Fan ziyosi" naşriyoti, 2022 yil. B. 240.), Yunusov K.A. "Özbekistonda sotsiologiya fani namoyandalari" (Toşkent. "Metodist" naşriyoti. 2025 yil.) kabilar şular jumlasidandir.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlaşda dialektik yondaşuv, tizimli tahlil, kontent tahlil, analitik, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Sotsiologgrafik nuqtai nazardan qaraganda, hozirda, Özbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar, ijtimoiy tadqiqotlardagi eng muhim muammo şundan iboratki, avvallarda foydalanib kelingan, almisoqdan qolgan metodologiya, konsepsiya, eskirib qolgan nazariy paradigmalarga asoslanib qolgan qaraşlardan çiqa olinmayotganligi bölib qolmoqda.

Endigi vazifa yangilanayotgan Özbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida yaratilayotgan darslik, öquv qöllanma, monografiya, ilmiy maqola, PhD va DSc darajalaridagi doktorlik dissertatsiyalari mavzulari ham, ularda ilgari surilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari ham sotsiologgrafik nuqtai nazaridan jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boşqa talablarga töla javob bera oladigan bölişi şart. Şuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida qanday ta'limot, paradigmalar va konsepsiyalar nazariy-metodologik asos bölib xizmat qila olişini aniqlamoq lozim. Kelgusida yaratiladigan öquv qöllanma va darsliklarda ham ana şu tamoyilga asoslanmoq joizdir.

Mazkur ilmiy maqolada erişilgan natija sifatida quyidagilarni bayon etişni lozim topdik.

1. Sotsiologgrafiya - Özbekistonda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, politologiya, iqtisodiyot nazariyasi, huquqşunoslik, psixologiya kabi fanlarning nazariy-metodologik asosi, ilmiy-nazariy konsepsiya, tamoyil sifatida amal qiladi va xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, ijtimoiy tadqiqotlarda sotsiologgrafiya nafaqat fan yönalişi balki, nazariy-metodologik asos bölib ham xizmat qiladi. Sotsiologgrafik nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida nomlari keltirilgan fan sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot işlari özlarining ijtimoiy-milliy samarasiga, qay darajada foydaliligiga, millat, jamiyat va mamlakat ravnaqiga, xalqimiz ham moddiy, ham ilmiy-ma'naviy farovonligiga qay darajada naf keltira olişi kabi jihatlarga ega bölişi lozim. Şundagina bunday tadqiqot işi özining ilmiy-ijtimoiy qimmatiga ega böladi.

3. Sotsiologgrafiya – ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida amal qiluvçi ilmiy-tadqiqot yönalişi bölib, özining bir qator ilmiy-nazariy va amaliy funksiyalarini namoyon qiladi. Bular: dunyoqaraşlik, biliş, ilmiy-ijodiy, yaratuvçilik, amaliy-pragmatik, amaliy-foydalilik, kreativlik kabi ijtimoiy funksiyalar bölib, ular ijtimoiy fanlar doirasida yaratilayotgan ilmiy tadqiqot işlarining ilmiy-amaliy qimmatini aniqlaşga qaratiladi.

4. Sotsiologgrafiya – ijtimoiy-gumanitar (falsafa, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, politologiya, iqtisodiyot, huquqşunoslik, psixologiya, pedagogika, adabiyotşunoslik kabi) fanlarning mahsus sohasi sifatida namoyan böladi. Sotsiologgrafiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojlanişida yangi yönaliş bölib, u jamiyat hayotining hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, uslubiy kabi zaruriyati sifatida amal qiladi.

Özbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan joy olişi uçun fan sohalarining ta'siri juda katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon fan va texnologiyalari yutuqlaridan faqat iste'molçi sifatidagina emas, balki ularni yaratuvçi, işlab çiqaruvçi va dunyoga yetkazib beruvçi zamonaviy kadrlarning şakllanişiga köp jihatdan bog'liqdir.

Özbekiston Respublikasi milliy mustaqilligining dastlabki davrlaridanoq ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, sotsiologiya, politologiya, psixologiya, huquqşunoslik fanlariing nazariy-metodolik asoslarini tahlil qilişga urinişlar böldi. Özbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining muxbir

a’zosi, J.Tulenovning “Hayot falsafasi” nomli monografiyasi hayot talabidan kelib çiqayotgan dolzarb muammolarni falsafiy jihatdan muşohada qilişga bag‘işlangan bölsa-da, asarning tub mohiyati nuqtai nazaridan, muallif, Şöro tuzumi davrida amal qilgan materialistik qobiqdan çiqa olmaganligini körsatadi. Jumladan, asarda: “Falsafiy dunyoqaraşning öziga xos xususiyati şundan iboratki, u kişilarga tabiat, jamiyat, inson tafakkuri rivojlanişining umumiy qonuniyatlari haqida bir butun, yaxlit ma’lumot beradi. Şu bilan birga u insonni qurşab turgan moddiy olamning heç kim tomonidan yaratilmaganligini, abadiyligini uqtiradi” [7] – deb ta’kidlagan fikri, ayni dahriylikka asoslangan materialistik yondaşuv ekanligini anglatadi.

Falsafa fanlari doktori, profesor Q.Nazarovning “G‘oyalar falsafasi” nomli tajribaviy qöllanmasi (Toşkent: “Akademiya” naşriyoti. 2011. – B.331.), hozirgi davr falsafiy tafakkurining rivojlanişida özining munosib örniga ega böladigan asar ekanligini ta’kidlaş lozim. Uşbu asarda bayon etilgan falsafiy ta’limotning özagi – ijtimoiy taraqqiyotga g‘oyalar falsafasi asosida yondaşilgan. Jumladan, muallif asarda: “Ijtimoiy taraqqiyotni “g‘oyalar falsafasi” fani nuqtai nazaridan örganiş insoniyat tarixining har qanday davri g‘oya va mafkuralarning umumiy tizimiga ega bölişidan dalolat beradi” [8] – deb ta’kidlaydi.

Binobarin, “Umrini yaşab bölgan ijtimoiy kuçlar, guruhlar, tartiblar, ularning g‘oyalari va mafkuraviy tizimlari öz örnini yangi g‘oyalarga böşatib berişi hayot qonunidir” [8]. Haqiqatdan ham, hozirda, Özbekistonda amal qilişi lozim bölgan ijtimoiy falsafa fanining ilmiy tadqiqotlari yangiça yondaşuvlar asosida olib boriş maqsadga muvofiq. Mazkur qöllanma ana şunday yondaşuv asosida yozilgan bölib, Özbekistonda hozirgi zamon falsafa fanini rivojlantirişda muhim ahamiyat kasb etişini ta’kidlab ötiş joiz.

Ijtimoiy falsafaning asosiy tadqiqot obyekti sifatida namoyon böladigan ijtimoiy biliş özining öta murakkab jihatlari va xususiyatlariga ega ekanligi ham, mazkur muammoga bir tomonlama yondaşiş mumkin emasligini bildiradi.

F.f.d., prof. N.A.Şermuxamedova özining “Gnoseologiya – biliş nazariyasi” nomli darsligining “Ijtimoiy-gumanitar bilişning öziga xos xususiyatlari” nomli paragrafida, “Jamiyatning ijtimoiy-gumanitar biliş obyekti sifatidagi muhim xususiyati şundaki, uning mazmuni va tarkibiga ongli va faol biliş subyekti örganilayotgan ijtimoiy borliq va “inson dunyosi” ning muhim elementi sifatida kiradi” [9]. “Aslida, ijtimoiy biliş ijtimoiy jihatdan şakllangan va manfaatdor subyekt tomonidan amalga oşiriladi, u mazkur subyektning dunyoqaraşi bilan belgilanadi” [9] - deb hisoblaydi. Mazkur qaraş, bizningça, ijtimoiy bilişning subyektiv jihatlariga asosiy e’tibor qaratilganligini körsatadi.

Hozirda, Özbekistonda ayrim falsafa fanlari doktorlari, professor olim(a)lar ham, (masalan, falsafa fanlari doktori, professor F. X. Yuldaşeva kabi) tadqiqotçilar özlarining doktorlik dissertatsiyasida marksizm ta’limotidan nazariy-metodologik asos sifatida foydalanişlari mumkin, deb xisoblamoqdalar. Ular, göyoki, G‘arb mamlakatlari olimlari hozirda ham ilmiy tadqiqotlarida marksizim nazariyasidan metodologik tamoyil sifatida foydalanayotganlarini misol qilib körsatmoqdalar. G‘arb mamlakatlari olimlari, xususan, neomarksistlar marksizim nazariyasidan metodologik tamoyil sifatida foydalanayotganlari tög‘ri. Ammo, birinçidan, neomarksistlar, marksizm ta’limot tamoyillarini yangiça talqinda olib qaraganlar. Frankfurt maktabining vakillari: Maks Xorkxaymer, Karl Grunberg, Karl Korş, Dyordji Lukacs, Henrik Grossmann va David Ryazanov, Teodor Adorno, Gerbert Markuze, Eriç Frommlar edi.

Ikkinçidan, g‘arb mamlakatlarida, xususan, Germaniya, Fransiya, Rossiya kabi mamlakatlarda kommunistik mafkuraga asoslangan qaraşlar, kommunistik partiyalar faoliyati ta’qiqlanmagan, xatto ayrim qöşni davlatlarda ham. Gap şundaki, kommunistik mafkuraga asoslangan qaraşlar, kommunistik partiyalar faoliyati Özbekistonda ta’qiqlanadi. Bunday qaraşlar, kommunistik mafkura Özbekiston milliy davlatçiligiga mutlaqo begona, yot va ijtimoiy taraqqiyotimizga zararli mafkura, g‘oya sifatida qabul qilingan. Şuning uçun ham, mamlakatimiz, ijtimoiy falsafiy tadqiqotlarda marksizm ta’limotidan nazariy-metodologik asos sifatida foydalaniş nojoiz, - deb xisoblayman.

Sotsiologgrafiyaning tadqiqot predmeti - ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid iqtisod, siyosatşunoslik, huquqşunoslik, sotsiologiya, falsafa, adabiyotşunoslik kabi fanlar böyiça olib

borilgan va hozirda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, asarlarning mazmun-mohiyati, ularning jamiyat, davlat, millat ravnaqi uçun qay darajada dolzarbligi, zarurligi, ilmiy qimmatga egaligi, qolaversa, qay darajada qimmatga egaliligi, foydaliligini baholaş bilan belgilanadi.

Sotsiologgrafiya yönalişi özining tadqiqot obyekti va predmetiga ega. Sotsiologgrafiyaning tadqiqot obyektini ijtimoiy fanlarda yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqot natijalari (ayniqsa dissertatsiyalar) ni örganiş taşkil qiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda yaratilayotgan ilmiy asarlarning mohiyati, mazmuni, ilmiy qimmati, muayyan tarixiy davr uçun qançalik dolzarbligi, ilmiy jihatdan foydaliligini aniqlaşga qaratilişi lozim.

Uning predmetini ijtimoiy-gumanitar fanlar, jamiyat hayotidagi mavjud ijtimoiy muammolarni neçog‘li bartaraf etilganligi taşkil qiladi.

Sotsiologgrafiyada örganilişi lozim bölgan, ijtimoiy-gumanitar fanlardagi metodologik yondaşuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Çunki ijtimoiy-siyosiy davr özgarişi bilan nazariy-metodologik yondaşuvlar, konsepsiyalar ham özgarib boradi. Binobarin, eski arava konstruksiyasi bilan zamonaviy reaktiv raketa yasab bölmaganidek, eskiça ijtimoiy-siyosiy qaraşlar, munosabatlar, metodologik tamoyillar bilan ham yangilanayotgan Özbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotini şakllantirib va rivojlantirib bölmaydi. Hozirda bu isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi. Hozirda, yangilanayotgan Özbekistonda falsafa, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, politologiya, iqtisodiyot, huquqşunoslik, psixologiya, pedagogika, adabiyotşunoslik kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar sohalarida yaratilayotgan darslik, öquv qöllanma, monografiya, ilmiy maqola, PhD va DŞ darajalaridagi doktorlik dissertatsiyalari mavzulari ham, ularda ilgari surilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari ham sotsiologgrafik nuqtai nazaridan jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boşqa talablarga töla javob bera oladigan bölişi şart. Ammo hozirda, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlarida, yuqorida nomlari eslatib ötilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida olib borilayotgan va bajarilayotgan aksari ilmiy iş natijalari asosan, ilmiy izlanuvçi şaxslarning moddiy va ma’naviy manfaatlarini qondirişgagina qaratilib qolmoqda. Masalan. Aksari yaratilayotgan öquv adabiyot (darslik, öquv qöllanma, monografiya) lari, aksari hollarda, ilmiy izlanuvçining ilmiy daraja (PhD va DŞ) yoki ilmiy unvon (katta öqituvçi, dotsent, professor) oliş maqsadida tayyorlanmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy davr özgarişi bilan ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojlanişida saqlanib, qöllanilib kelinayotgan nazariy-metodologik konsepsiyalar, tamoyillar eskirib qoladi, yangi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnologik taraqqiyot talablariga javob bera olmay qoladi. Natijada, eski, almisoqdan qolgan nazariy-metodologik konsepsiyalarga asoslangan har qanday asar (ayniqsa. dissertatsiyalar), monografiya, maqola, ma’ruza tezislari özining ilmiy qimmatiga ega bölmaydi va oq qog‘ozlarga bitilgan safsatalar konglomeratidan iborat bölib qoladi. Ular heç qanday ilmiylikka, jamiyatga naf keltirmaydigan qandaydir mulohazalar töplamidangina iborat bölib qolaveradi.

Sotsiologgrafiya tarixşunoslik fani bilan ma’lum jihatdan yondoş va tafovutlidir. Uning tarixşunoslik bilan yondoş ekanligi, biri tarixiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida amal qilib, “tarixiy bilimlar tizimida tarix fanining tarixini örganuvçi fan sifatida joy olgan” [10] bölsa, sotsiologgrafiya - ijtimoiy fanlarga oid ilmiy qaraşlar, g‘oyalar, konsepsiyalar, metodologiyalar va ta’limotlarni örganuvçi maxsus ijtimoiy yönalişdir.

Sotsiologgrafiya ijtimoiy-falsafiy mazmundagi asar yozişda muallifga, uning manbalariga, tarixiy davrga, faktlarni talqindan ajratişga, şuningdek, stilistikaga, muallifning xohişiga va ma’lum bir tarixiy asar yozilgan auditoriyaga e’tibor qaratgan holda, ilmiy uslubning tög‘ri qöllanilişini tekşiradi. “Ijtimoiy fanlar jamiyatning u yoki bu sohalarini, masalan, faylasuflar, sotsiologlar, lingvistlar, siyosatşunoslar, iqtisodçilar, adabiyotşunoslar jamiyat hayotini alohida-alohida tadqiqot sohasi sifatida örgansalar, tarix fani jamiyat hayotini tölaligiça, bor kölami bilan örganadi va şu jihati bilan jamiyat hayotini örganuvçi ijtimoiy fanlar qatorida alohida örin tutadi” [11].

Menimça, hozirda ilmiy-ijtimoiy tadqiqotlar doirasida yaratilayotgan asarlar: ilmiy maqola, monografiya, öquv qöllanma, darslik, dissertatsiyalar sotsiologgrafik nuqtai nazardan quyidagi talablarga javob berişi lozim.

Ilmiy tadqiqot işining dolzabliligini aniqlaş. Bunda ilmiy tadqiqot işi jamiyat hayotining qaysi ijtimoiy muammosiga bag‘işlanganligi, özidan avvalgi davrda yaratilgan ilmiy asarlarga nisbatan qanday öziga xos xususiyatlarga ega ekanligi körsatilişi lozim. “Tadqiqot mavzusi dolzarbligining

ikki xususiyati mavjud bölib, birinçidan, mavzuning dolzarbligi faqatgina ijtimoiy-amaliy jihatdangina emas, balki tarixçi tadqiqotning metodologik asoslari bilan bog‘liq ilmiy ahamiyatiga e’tibor qaratişi nazarda tutiladi. Ikkinçidan, mavzuning dolzarbligi özgarmas va mutlaq ahamiyatga ega bölişi mumkin emas, çunki bir holatda dolzarb bölgan mavzu boşqa bir holatda öz ahamiyatini va dolzarblig ni yöqotişi mumkin” [11].

Olib borilgan tadqiqot işiining ilmiy yangiligi nimalardan iborat ekanligini körsatilişi lozim.

1. Tadqiqot işida qaysi metodologiyaga asoslanganligi.
2. Tadqiqot işi qanday amaliy natijalarga erişilganligi.
3. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.
4. Olib borilgan tadqiqot işining ilmiy va amaliy jihatdan foydaliligi nimalardan iborat ekanligi.

Jamiyat hayoti va ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy rejim ularning röy berişidagi asosiy omillar va ularning xususiyatlarinni ilmiy asosda tadqiq qilişda har tomonlama tahlil qiliş ijtimoiy haqiqatning yuzaga çiqarişda katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy jarayonlar va hodisalar, ijtimoiy muammolarni tuşuntiriş, ijtimoiy tadqiqotlarning nazariy-metodologik tamoyillariga bog‘liq böladi. Sotsiologgrafiyada ana şu yondaşuvlar örganiladi. Çunki ijtiomoiy tadqiqotlar, xususan, ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, iqtisodiy tadqiqotlar mavjud siyosiy tartibotga böysunib kelgan. Uning qobig‘idan çiqa olmagan. Buning oqibatida esa, mazkur tadqiqotlar özining obyektivlik mohiyatini yöqotgan.

XULOSA

Yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalardan quyidagi xulosalarni çiqariş mumkin.

1. Yangilanayotgan Özbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining hozirgi davrida va kelgusidagi rivojlanişini tadqiq qilişda sotsiologgrafiya ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida va ijtimoiy tadqiqotlarda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

2. Sotsiologgrafik tadqiqotlarni olib borişda muhim jihatlardan biri, uning boşqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan özaro aloqadorligi, ularda qölga kiritilgan ilmiy-amaliy natija, erişilgan ilmiy yutuq va yangiliklarni tahlil qilib baholaş yoki ularni tanqidiy jihatdan örganib, heç qanday ilmiy-amaliy qimmatga ega emasligini oşkora bayon qilib, rad etişdan iborat bölmog‘i lozim.

3. Sotsiologgrafiya hozirda, Özbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida va ilmiy tarqiqot işlarini olib borişning yangi nazariy-metodologik asoslarini işlab çiqişi zarur. Çunki uşbu muammo barça ijtimoiy-gumanitar fanlar uçun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / Литература / References:

1. Gafforova Mavlyuda. Telegramm kanali. “Kelajakka işonç.” 2025 yil, 30- yanvar.
2. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tög‘risida. 01.05.2023 yildagi ÖRQ-837-sonhttps://lex.uz/docs/6449033.
3. Özbekiston Respublikasi Prezidenti Şavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Özbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/8834. 26.12.2025.
4. Yunusov K.A. Özbekistonda sotsiologiya fani namoyandalari. – Toşkent^ “Metodist” naşriyoti, 2025. – 337 b.
5. Yunusov K.A. Özbekistonda sotsiologiya fani namoyandalari. – Toşkent^ “Metodist” naşriyoti. 2025 yil. 338 bet.
6. Тулаев Б. Методология научных исследований. Учебник. – Ташкент, 2020. – 199 с.
7. Tulenov J.T. “Hayot falsafasi” – Toşkent: “Özbekiston” naşriyoti, 1993. – B.319.
8. Nazarov Q. “G‘oyalar falsafasi” nomli tajribaviy qöllanmasi. – Toşkent: “Akademiya” naşriyoti, 2011. – B.331.
9. N.A.Şermuxamedova. “Gnoseologiya – biliş nazariyasi” Darslik. – Toşkent: “Özbekiston faylasuflari milliy jamiyati”naşriyoti, 2011. – B. 463.
10. Alişer Doniyorov. Markaziy Osiyo xalqlari tarixşunosligi. – Toşkent: NIFMŞ, 2020. – B.10.
11. Смоленский Н. И. Теория и методология истории. – М.: «Академия» , 2007. – С.45.

ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000